

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SUVONOV BEKNIYOZ BAXTIYOR O'G'LI

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA MEHNAT
KO'RSATKICHLARI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economics sciences**

Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o‘g‘li

Ho‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini
takomillashtirish3

Сувонов Бекниёз Бахтиёр угли

Совершенствование анализа показателей труда в хозяйствующих
субъектах29

Suvonov Bekniyoz Bakhtiyor ugli

Improving the analysis of labor indicators in business entities55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SUVONOV BEKNIYOZ BAXTIYOR O'G'LI

XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA MEHNAT
KO'RSATKICHLARI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.2.PhD/Iqt3045 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	To'rayev Abdurahim Nortojiyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Ibragimov Abdugapur Karimovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «25» 12 soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «10» 12 kuni tarqatildi.

(2025 yil «10» 12 daqi 115- raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda mehnat unumdorligi, ishchi kuchidan samarali foydalanish hamda mehnat samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari 2021–2025 yillarda iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Jumladan, "AQShda mehnat unumdorligi 2021 yilda har bir soatlik ishchi mehnatiga to'g'ri kelgan ishlab chiqarish hajmi 70,6 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilning oxirida ushbu ko'rsatkich 78,9 dollarga yetkazilishi prognoz qilinmoqda – bu 11,8% o'sish demakdir"¹. "Germaniyada esa 2021–2024 yillar oralig'ida mehnat unumdorligi o'rtacha 9,3% ga o'sgan, bu avtomatlashtirish va raqamli mehnat tahlil tizimlarini joriy etish natijasidir"². "Janubiy Koreyada mehnat unumdorligining o'sish sur'ati 2021 yilda 6,4% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga borib bu ko'rsatkich 14,7% ga yetishi kutilmoqda"³. Ushbu mamlakatlarda ishchi kuchi samaradorligini tahlil qilish, mehnatni rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini mehnat ko'rsatkichlari asosida qabul qilish keng yo'lga qo'yilgan. Shunday ekan, mehnat ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar asosida shakllantirish va tahlil qilish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligiga erishish mumkin.

Jahon amaliyotida xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiyotini rivojlantirishda mehnat resurslaridan samarali foydalanish va mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar qamrovi kengayib bormoqda. Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida faoliyat yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlilini xalqaro miqyosda tan olingan uslublar, ilg'or texnologiyalar va standartlar asosida tashkil etish, mehnat xarajatlari, ish haqi, rag'batlantirish to'lovlari hamda ularning moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirish, mehnat ko'rsatkichlar bo'yicha samaradorlik va unumdorligi, xodimlar potensialini oshirishga oid xalqaro standartlarni amaliy joriy etish, xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlilini takomillashtirish, xalqaro tajriba hamda standartlarga asoslangan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, bankrotlik holatlarining oldini olish va ish o'rinlarini saqlab qolish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan mehnatga haq to'lashni subsidiyalash va aholining daromad manbalarini qo'llab-quvvatlash, davlat budjeti hisobidan 1,8 trln so'mdan ortiq subsidiya ajratish, 60 mingga yaqin subyektga soliq hamda ijtimoiy sug'urta to'lovlarini kechiktirish bo'yicha imtiyozlar berish, foiz stavkalarini 16 % dan 14 % ga tushirish orqali tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslariga kirishini yengillashtirish, shu bilan birga xo'jalik yurituvchi

¹ AQSH Mehnat statistikasi byurosi 2024-yil uchun mehnat unumdorligi va xarajatlari bo'yicha choraklik va yillik hisoboti. <https://www.bls.gov>

² Germaniya Federal statistika boshqarmasi – Destatis 2021–2024-yillar uchun Germaniyada mehnat unumdorligi bo'yicha hisobot. <https://www.destatis.de>

³ Koreya Mehnat unumdorligi markazi 2023-yilgi Milliy mehnat unumdorligi statistikasi yilnomasi. Seul: KPC nashriyoti. https://eng.kpc.or.kr/eng/national/na_productivity.asp

subyektlarda xodimlar mehnat unumdorligini saqlash, rag‘batlantiruvchi to‘lovlarni tashkil etish, mehnatga haq to‘lash hisobini takomillashtirish hamda ish haqi va unga bog‘liq xarajatlarning hisobga olinishi, tasniflanishi, tan olinishi va baholanishini moliyaviy hisobot standartlari asosida isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ««O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-son «Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 31-oktabrdagi PQ-4502-son ««Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 545-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2015-yil 28-iyundagi 207-son «Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida»gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilining nazariy va uslubiy muammolari xorijlik iqtisodchi olimlar E.P.Lazear, Jack E. Triplett, Valerie A. Ramey, Matthew D. Shapiro, Porter Michael E., Claas van der Linde, D.S.Sink, V.V.Varzin, A.Smit, N.V.Klimova, A.Ya.Kibanov, V.I.Orexov, T.R.Orexova, O.V.Karagodina, N.V.Posherstnik, M.S.Meyksin, N.M.Rimashevskoyning ilmiy ishlarini alohida qayd etish mumkin⁴.

⁴ Lazear E.P. Performance Pay and Productivity. American Economic Review. 2000. pp. 1346-1361 (16 pages), <https://www.jstor.org/stable/2677854>; Jack E. Triplett “The Measurement of Labor Cost”: University of Chicago Press. – Chicago: 1983. – 64 p.; Valerie A. Ramey, Matthew D. Shapiro. "Displaced Capital: A Study of Aerospace Plant Closings," Journal of Political Economy, University of Chicago Press, vol. 109(5), pages 958-992, 2001. October.; Porter Michael E. and Claas van der Linde. "Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship." Journal of Economic Perspectives, 9 (4): pages 97-118.; 1995.; Sink D.S. Performance Management: Planning, Measuring and Evaluating, Controlling and Improving. – M., 2012. – 518 p.; Варзин В.В. Особенности формирования заработной платы в промышленной сфере малого города // Экономика образования. – 2010. – № 2 (2). – С. 75–87.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М., 1992. – 97 с.; Климова Н.В. Экономический анализ (теория, задачи, тесты, деловые игры): Учебное пособие. – М., 2008. – 287 с.; Вузовский учебник, 2008. – 287 с.; Кибанов А.Я. Управление персоналом организации. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 512 с.; Орехов В.И., Орехова Т.Р., Карагодина О.В. Антикризисная модель роста экономики России на основе обеспечения повышения производительности труда: Монография. М.: ИНФРА-М, 2014. – 111 с., Пошерстник Н.В., Мейксин М.С. Заработная плата в современных условиях. – СПб.: Герда, 2008. – 408 с; Римашевской Н.М. Социальная политика / Под ред. –

O‘zbekistonlik olimlar N.B.Abdusalomova, I.A.Bakieva, R.D.Dusmurov, A.K.Ibragimov, A.A.Karimov, M.Q.Pardayev, A.X.Pardayev, M.Yu.Raximov, A.N.To‘rayev, N.Sh.Xajimurov, B.A.Xasanov, I.N.Qo‘ziev va boshqalarning ilmiy asarlarida mehnat ko‘rsatkichlari tahlilining nazariy, uslubiy va amaliy muammolari o‘z aksini topgan⁵. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy adabiyotda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilining muammolari yechimi yaxlit kompleks tartibda, maxsus mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Ushbu mualliflarning tadqiqotlari muhim ilmiy – amaliy ahamiyatga ega bo‘lsa-da, lekin, mazkur ishlarda xo‘jalik yurituvchi subektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini takomillashtirish masalalari yetarlicha ochib berilmagan. Shuningdek, ushbu muammolarni bir-biriga uzviy bog‘liqlikda va yaxlit holda o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ham yetarli emas. Mazkur jihatlar ushbu mavzuda ilmiy-tadqiqot olib borish, uning maqsadi va vazifalarini belgilashga asos bo‘ladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6 “O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalarida taraqqiyotining konseptual yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ishlab chiqarish subyektlari tarmoq xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda, mehnat ko‘rsatkichlari tahlilining iqtisodiy mohiyatini ilmiy asoslash;

tizimli yondashuv asosida xodimlarning iqtisodiy tuzilmasini, ko‘rsatkichlar tizimini va qo‘llaniladigan tahliliy jarayonlar ketma-ketligini ishlab chiqish;

М.: ИНФРА-М, 2001. – 320 с.

⁵ Абдусаломова Н.Б. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021 – 944 б.; Бакиева И.А. ва б. Меҳнат кўрсаткичлари таҳлили. Дарслик. – Т.: "ИQTISODIYOT", 2019. – 183 б.; Дусмуратов Р.Д. Ўзбекистонда аудиторлик фаолиятининг шаклланиши ва унинг услубиётини такомиллаштириш. И.ф.д. ... дисс автореф. – Т., 2008. – 42 б.; Ибрагимов А.К. Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби, аудит ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари таннархини аниқлашни такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун диссер. авто. – Т.: 2002. – 34 б.; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари: и.ф.д. ... дис. автореф., – Т.: 2009. – 32 б.; Пардаев М.Қ., Исроилов Б.И., Холикулов А.Н., Яхёев Т.И. “Меҳнат кўрсаткичлари таҳлили”. /Ўқув қўлланма/ – Самарқанд: “FAN BULOG‘I” нашриёти, САМИСИ, 2022. – 176 б.; Пардаев А.Х., Пардаев Б.Х. Бошқарув ҳисоби. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – 251 б.; Рахимов М.Ю., Қаландарова Н.Н. Молиявий таҳлил. Дарслик. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2019. – 267 б.; Тўраев А.Н. ва бошқалар. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2019. – 332 б.; Хажимуратов Н.Ш. Молиявий ҳисобот аудити методологиясини такомиллаштириш: И.ф.д. ... дис. автореф. – Т., 2021. – 66 б.; Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт. Монография. – Т.: «Молия», 2003. – 248 б.; Қўзиев И.Н. ва бошқалар Аудитнинг халқаро стандартлари. Электрон дарслик. – Т.: ТМИ. 2021. – 464 б.

subyekt xodimlarini tahlil qilish uchun buxgalteriya va buxgalteriya hisobi bo'lmagan ma'lumotlar manbalarini tizimlashtirish va moliyaviy hisobotlarda xodimlarning xarajatlari va xodimlarning ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

turli xil xodimlar xarajatlarining nisbatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, ularning tahlili xarajatlarning maqsadga muvofiqligi va ustuvorligini baholash;

xodimlarni baholashning tahliliy imkoniyatlarini kuchaytirish uchun moliyaviy hisobotlarda jami xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

xodimlarning umumiy xarajatlarini tahlil qilishning maqsadi, vazifalari va ijrochilarni aniqlashtirish uchun xodimlar xarajatlarining umumiy guruhini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida «O'zmaxsusmontajqurilish» va «KVARTS» aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini xo'jalik yurituvchi subektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlilini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy izlanish jarayonida aniq faktlar asosida tadqiqot o'tqazishda dialektik yondashuv, deduksiya, induksiya, analiz, sintez, guruhlash, tanlab tekshirish, ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish, statistik ma'lumotlarni taqqoslash, iqtisodiy-matematik modellash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligini ifodalovchi ish haqi, mehnat unumdorligi va mahsulot qiymati o'rtasidagi bog'liqlikning "samaradorlik muvozanati jadvali" usuli asosida ko'p o'lchovli kompleks ko'rsatkichlarni baholash takomillashtirilgan;

buxgalteriya hisobida ishchi kuchining iqtisodiy qiymatini inson kapitali elementi sifatida hisobga olishni ta'minlovchi integratsiyalashgan hisob modelini ishlab chiqish asosida mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va hisob registrlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash orqali mehnat samaradorligini aniqlash takomillashtirilgan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlili jarayonida buxgalteriya ma'lumotlari bo'yicha mehnat samaradorligi prognozini shakllantirish "Mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari baholash bo'yicha dasturiy mahsulot"ni qo'llash asosida takomillashtirilgan;

"O'zmaxsusmontajqurilish" AJning mehnat samaradorligi, ish soatlari va oylik ish haqi dinamikasi, innovatsiya darajasi bo'yicha uzoq muddatli tendensiyalari asosida iqtisodiy-matematik usullardan foydalangan holda mehnat samaradorligi ko'rsatkichlarining 2030-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat jarayonlarini baholashda ko'p o'lchovli yondashuvni joriy etish asosida ishchi kuchining samaradorligini aniq ko'rsatkichlar orqali baholash va mehnat resurslaridan foydalanish samarasini oshirish imkoni yaratilgan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda ularning ta'sir kuchini baholash orqali korxonalar mehnat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish va rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlarini tahlil qilish jarayonlari tizimli va aniqlashtirilgan holatga keltirilib, ish vaqti, ish haqi, mehnat unumdorligi va xodimlar aylanmasi kabi ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq holda baholangan;

xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligining istiqboldagi o'sish tendensiyalari aniqlanib, strategik rejalashtirish va mehnat resurslarini boshqarish sohasida uzoq muddatli qarorlar qabul qilishning ilmiy asosi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umumtan olinganligi hamda maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarda oid ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi va mehnat ko'rsatkichlari tahlili manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning tegishli normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqishda foydalanilganligi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlarini takomillashtirishda foydalanishga joriy etilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlarini takomillashtirishdagi mavjud muammolarni hal etishda, oliy o'quv yurtlarida iqtisodiy tahlil, moliyaviy hisobot tahlili o'quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda bayon qilingan taklif va tavsiyalardan xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlarini takomillashtirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda uslubiy jihatdan foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlarini tahlilini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligini ifodalovchi ish haqi, mehnat unumdorligi va mahsulot qiymati o'rtasidagi bog'liqlikning "samaradorlik muvozanati jadvali" usuli asosida ko'p o'lchovli kompleks ko'rsatkichlarni baholash bo'yicha taklifi «KVARTS» AJ va «O'zmaxsusmontajqurilish» AJ amaliyotiga joriy etilgan («KVARTS» AJning 2024-yil 17-oktyabrdagi 01-17/902-sonli, «O'zmaxsusmontajqurilish» AJning 2025-yil 29-maydagi 01-87/01-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlarining xodimlari tomonidan yaratilgan mahsulot va ish xizmatlar hajmi, qiymati hamda sifatini aniqlash imkoni yaratilgan;

buxgalteriya hisobida ishchi kuchining iqtisodiy qiymatini inson kapitali elementi sifatida hisobga olishni ta'minlovchi integratsiyalashgan hisob modelini ishlab chiqish asosida mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va hisob registrlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash orqali mehnat samaradorligini aniqlash taklifi

«KVARTS» AJ va «O‘zmaxsusmontajqurilish» AJ amaliyotiga joriy etilgan («KVARTS» AJning 2024-yil 17-oktyabrdagi 01-17/902-sonli, «O‘zmaxsusmontajqurilish» AJning 2025-yil 29-maydagi 01-87/01 sonli ma’lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga qo‘llanilishi mehnat samaradorligini oshirishning ichki va tashqi imkoniyatlarini aniqlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini hisobga olish imkonini bergan;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlili jarayonida buxgalteriya ma’lumotlari bo‘yicha mehnat samaradorligi prognozini shakllantirish “Mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlari baholash bo‘yicha dasturiy mahsulot”ni qo‘llash asosida takomillashtirish taklifi «KVARTS» AJ va «O‘zmaxsusmontajqurilish» AJ amaliyotiga joriy etilgan «KVARTS» AJning 2024-yil 17-oktyabrdagi 01-17/902-sonli, «O‘zmaxsusmontajqurilish» AJning 2025-yil 29-maydagi 01-87/01-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur taklifning amaliyotga qo‘llanilishi natijasida mehnat ko‘rsatkichlarini tezkor aniqlash, mehnat unumdorligini, mehnat salohiyati rentabilligi ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini bergan;

“O‘zmaxsusmontajqurilish” AJning mehnat samaradorligi, ish soatlari va oylik ish haqi dinamikasi, innovatsiya darajasi bo‘yicha uzoq muddatli tendensiyalari asosida iqtisodiy-matematik usullardan foydalangan holda mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlarining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari «O‘zmaxsusmontajqurilish» AJ amaliyotiga joriy etilgan («O‘zmaxsusmontajqurilish» AJning 2025-yil 29-maydagi 01-87/01-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko‘rsatkichlarida mehnat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarining ishonchliligini to‘laqonliligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 2 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta dasturiy ta’minot, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalap huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatining muhimligi ilmiy izohlab berilgan,

tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning birinchi bobi **«Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlilini takomillashtirishning nazariy masalalari»** deb nomlangan bo'lib, unda xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlari tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslari va xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlilining xorij tajribasi va undan respublikamizda qo'llash jihatlari ochib berilgan.

Mehnat ko'rsatkichlari (yoki mehnat samaradorligi, bandlik darajasi, ish haqi dinamikasi va boshqa mehnatga oid indikatorlar) zamonaviy iqtisodiyotlarda asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Jahon hamjamiyatida bu ko'rsatkichlarga beriladigan e'tibor tobora ortib bormoqda, chunki ular mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, aholining turmush darajasi va global raqobatbardoshligining asosiy o'lchovlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT – ILO), Jahon banki, Xalqaro valuta jamg'armasi (IMF), OECD va boshqa xalqaro institutlar muntazam ravishda mehnat bozoriga oid ko'rsatkichlarni kuzatib boradi. XMT tomonidan ishlab chiqilgan "Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari" to'plami (Key Indicators of the Labour Market – KILM) dunyo mamlakatlari uchun mehnat faoliyatini baholashda asosiy metodologik vosita hisoblanadi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda mehnat samaradorligi darajasi iqtisodiy siyosatning markazida turadi. AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Skandinaviya mamlakatlarida bir ishchiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi, soatlik mahsuldorlik va innovatsion mehnat turlari asosida doimiy monitoring olib boriladi. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda, hatto rivojlanish yo'lida tez o'sib borayotgan mamlakatlarda ham aholining turmush darajasi qanday o'zgarayotgani bilan mehnat unumdorligi o'rtasida uzviy bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Ammo hozirgi real holat shuni ko'rsatyaptiki, ba'zi korxonalar yaxshi natija qilayotgan bo'lsa ham, chet ellik raqobatchilar bilan solishtirganda mehnat samaradorligi sezilarli orqada qolmoqda. Shu sababli ular oldida ishlab chiqarish jarayonlarini qayta ko'rib chiqish, ortiqcha xodimlarni kamaytirish, mavjud resurslardan to'g'ri foydalanish yoki asbob-uskunalar samaradorligini oshirish kabi vazifalar paydo bo'lmoqda. Mehnat unumdorligini oshirish degani faqat xarajatni kamaytirish emas, balki butun jarayonni – rejalashtirishdan boshlab xodimlarni tanlash, joylashtirish, logistika, marketing va hattoki reklama faoliyatigacha – bir butun tizim sifatida boshqarishni anglatadi. Shu boisdan ham korxonani boshqarayotgan rahbariyatning asosiy vazifasi faqat texnik imkoniyatlar yaratish yoki yangi texnologiya olib kirish bilan chegaralanmaydi.

Mehnat ko'rsatkichlari bu ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlarning soni, sifati, mehnat unumdorligi, ish vaqtidan foydalanish darajasi, ish haqi darajasi va mehnat sharoitlariga oid statistik hamda iqtisodiy ko'rsatkichlar majmuasi. Ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishchi kuchi bilan bog'liq xarajatlarni optimallashtirish va inson resurslarini boshqarishni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shundan ko'rishimiz mumkinki, bugungi

kunda respublikamizda band bo'lgan aholi soni, ularning aksiyadorlik jamiyatlaridagi ulushi xodimlar qo'nimsizligi koeffitsienti 1-jadvalda keltirib o'tilgan.

1-jadval

Respublikamiz aksiyadorlik jamiyatlarida mehnat ko'rsatkichlari dinamikasi⁶

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2024-yil 2020-yilga nisbatan o'zgarishi
Ish bilan band bo'lgan aholi soni (mln)	13,5	13,7	13,7	14	14,2	0,7
Aksiyadorlik jamiyat (AJ)lari soni	538	587	610	627	688	150
AJlarda xodimlar soni (ming)	161 400	176 100	183 000	188 100	206 400	45 000
AJlarning daromad miqdori (mlrd so'mda)	62 000	65 300	68 100	72 000	77 300	15 300
YaIMda o'sish (%da)	2,00%	7,40%	5,67%	5,99%	6,50%	4,5%
Mehnat samaradorligi o'sishi (%da)	1,20%	4,80%	3,50%	3,57%	4,75%	3,6%
Ishchilar qo'nimsizlik koeffitsienti	10,5	9,6	8,9	6,8	5,5	-5
AJlarda bir ishchiga to'g'ri keladigan daromad (ming so'mda)	384	370	372	382	371	-13

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki ish bilan band bo'lgan aholi aksiyadorlik jamiyatlarida xodimlar soni hamda, ularning YaIM dagi ulushining oshganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, mehnat ko'rsatkichlari samaradorligi va unumdorligi oshishiga erishilganligini ko'rsatib beradi.

2-jadval

“O'zmaxsusmontajqurilish” va “KVARTS” AJ 2019–2024-yillar bo'yicha mehnat ko'rsatkichlarining tarkibi ⁷

Yil	Korxona	Yillik jami daromad (mln)	Ishchilar soni	O'rtacha yillik xodimlar	Mehnat samaradorligi (mln/xodim)	Yil davomida ketganlar	Qo'nimsizlik (%)
2019	“KVARTS” AJ	277 803	1 734	1 734	160,21	152	8,77
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	1 283 540,20	6 092	6 092	210	500	8,2
2020	“KVARTS” AJ	308 671	1 927	1 927	160,18	124	6,43
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	1 411 894,20	6 768	6 430	208	508	7,9
2021	“KVARTS” AJ	559 211	2 141	2 141	261,19	189	8,83
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	1 485 184,50	7 521	7 144	197	536	7,5
2022	“KVARTS” AJ	621 346	2 355	2 355	263,84	164	6,97
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	1 604 286,90	8 273	7 897	193	537	6,8
2023	“KVARTS” AJ	530 708	2 590	2 590	204,91	181	6,99
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	1 764 715,50	8 686	8 479	203	563	6,4
2024	“KVARTS” AJ	583 778	2 849	2 849	204,96	199	6,98
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	1 941 187,10	9 555	9 120	203	547	6

⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

2019–2024-yillar bo'yicha taqqoslash shuni ko'rsatadiki, "KVARTS" AJ kichikroq ishlab chiqarish korxonasi bo'lishiga qaramay, mehnat samaradorligi bo'yicha ko'pincha yuqoriroq darajaga ega bo'lgan, ya'ni bir xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish daromadi ba'zi yillarda "O'zmaxsusmontajqurilish" AJ ko'rsatkichlaridan sezilarli ustun bo'lgan (xususan 2021–2022-yillarda 261,19–263,84 mln so'm), bu korxonada ish jarayonlari, texnologiyalar yoki resurslardan foydalanish nisbatan samaraliroq ekanini ko'rsatadi. Biroq umumiy hajm ko'rsatkichlari bo'yicha "O'zmaxsusmontajqurilish" AJ daromadlar, ishchilar soni hamda ishlab chiqarish ko'lami yillar davomida keskin o'sishda davom etgan. Ikkala korxonada xodimlar qo'nimsizligi 6–9% diapazonida bo'lib, bu mehnat bozorida barqarorlikning o'rtacha darajasini ifodalaydi; ammo yillar davomida ko'rinib turibdiki, "O'zmaxsusmontajqurilish" AJda qo'nimsizlik darajasi asta-sekin pasayib borgan (8,20 % dan 6,00 % gacha), bu esa ichki boshqaruv, ijtimoiy paket va motivatsiya tizimlarining yaxshilanganini bildiradi.

3-jadval

Mehnat ko'rsatkichlari ta'rifi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning turli fikrlari⁸

N.V.Klimova⁹	Mehnat ko'rsatkichlari – bu mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlovchi tahliliy ko'rsatkichlar tizimi bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayonida mehnat unumdorligini, ish vaqtidan foydalanishni, ishchi kuchining harakatini va rag'batlantirish natijalarini ifodalaydi.
A.Ya.Kibanov¹⁰	Mehnat ko'rsatkichlari – bu xodimlarning mehnat jarayonida natijalarini, ularning faoliyati samaradorligini va korxona maqsadlariga erishishdagi hissasini o'lchaydigan mezonlardir.
Edward Lazear¹¹	Mehnat ko'rsatkichlari – bu xodimlar ish faoliyatida erishgan natijalarni aniqlash, baholash va rag'batlantirish uchun qo'llaniladigan o'lchovlar bo'lib, ular ish haqi tizimi va mehnat unumdorligi bilan chambarchas bog'liq.
N.M.Rimashevskaya va V.K.Bochkarev¹²	Mehnat ko'rsatkichlari – bu mehnat salohiyatining jamiyat miqyosida qanchalik to'g'ri va samarali ishlatilayotganini ko'rsatuvchi, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan indikatorlar tizimidir.
I.T.Abdukarimov, M.K.Pardayev, B.I.Isroilov¹³	Mehnat ko'rsatkichlari – bu korxona tomonidan ma'lum bir sohadagi maqsadlarga erishish, belgilangan vazifalarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan resurslar, imkoniyatlar va vositalar deb ta'riflaydilar.
O.T.To'xtasinov¹⁴	Mehnat ko'rsatkichlari – bu mehnat jarayonining samaradorligini ifodalovchi, xodimlarning ishlab chiqarishdagi faoliyatini baholash va boshqarishda foydalaniladigan statistik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidir.
Sh.Mamatqulov¹⁵	Mehnat ko'rsatkichlari deb ishchi kuchining soni, sifati, ish vaqtidan foydalanish darajasi va mehnat unumdorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar yig'indisiga aytiladi.
A.K.Xaydarov¹⁶	Mehnat ko'rsatkichlari – bu ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchi kuchining miqdori, sifati, ish vaqti va undan foydalanish samaradorligini ifodalovchi mezonlar majmuidi.
U.Hudayberdiev¹⁷	Mehnat ko'rsatkichlari statistik jihatdan hisoblanadigan va mehnat resurslari holatini tahlil qilishga xizmat qiluvchi asosiy ko'rsatkichlardir.

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁹ Климова Н.В. Экономический анализ (теория, задачи, тесты, деловые игры): Учебное пособие. – М.: Вузовский учебник, 2008. – Б. 185.

¹⁰ Кибанов А.Я. Управление персоналом организации. – М.: ИНФРА-М, 2005.

¹¹ Lazear E.P. Performance Pay and Productivity. American Economic Review. 2000. pp. 1346-1361 (16 pages). <https://www.jstor.org/stable/2677854>

¹² Римашевской Н.М. Социальная политика / Под ред. – М.: ИНФРА-М, 2001. – 320 с.

¹³ Abdukarimov I.T., Pardayev M.K., Isroilov B.I. Analysis of the economic potential of the enterprise. T.: "World of Economics and Law" Publishing House, 2003, 6 pages

¹⁴ Тўхтасинов О.Т. Меҳнат иқтисодиёти. – Т.: Иқтисодиёт, 2005. – Б. 150.

¹⁵ Маматқулов Ш. Корхона иқтисодиёти ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш. – Т.: Фан ва технология, 2010. – Б. 102.

¹⁶ Хайдаров А.К. Меҳнат иқтисодиёти ва меҳнат бозори. – Т.: ТДИУ, 2016. – Б. 198.

¹⁷ Худайбердиев У. Статистика: Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамИСИ, 2019. – Б. 152.

“KVARTS” AJda esa qo‘nimsizlikning yilma-yil tebranishi resurslar yetishmovchiligi, ishlab chiqarish yuklamasidagi o‘zgarishlar yoki ichki boshqaruv jarayonlarining barqarorlashmaganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, “KVARTS” AJ kichik korxona sifatida yuqori samaradorlikka tayanayotgan bo‘lsa, “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJ yirik korxona modeli asosida ko‘lam, barqarorlik va kadrlarga nisbatan izchil siyosati bilan ajralib turadi. Mehnat ko‘rsatkichlari tushunchasi bo‘yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar (3-jadval).

Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalari umumlashtirilgan holda muallif tomonidan «Mehnat ko‘rsatkichlari» tushunchasiga takomillashgan ta‘rif ishlab chiqilgan. Mehnat ko‘rsatkichlari bu mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida inson kapitalining iqtisodiy qiymatini aniqlovchi konseptual va metodologik ko‘rsatkichlar tizimidir.

4-jadval

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini tartibga solishning normativ-huquqiy bazasi¹⁸

Me‘yoriy hujjatning nomi	Nazorat qilish doirasi	Ishlab chiqish doirasi
«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»	Buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat	O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 13.04.2016 y., O‘RQ-404-son
«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»	Aksiyadorlik jamiyatlarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, shuningdek aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat	O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2014 yil 6 may, O‘RQ-370-son.
«Soliq kodeksi»	Mol-mulk solig‘i. Soliq to‘lovchilar. Soliq solish obyekti. Soliq bazasi. Soliq bazasini aniqlash tartibi. Soliq imtiyozlari. Soliq stavkalari. Soliq davri va ko‘chmas mulkka solinadigan soliq bo‘yicha boshqa munosabatlarni belgilaydi.	Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son;
«Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»	Ish haqining eng kam miqdori o‘ringa «Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori» atamasi qo‘llanilishi belgilandi. Natijada quyidagi 3 ta muhim masalalarning bir-biriga bog‘liqligini bartaraf yetish maqsad yetib belgilandi: mehnatga haq to‘lash; pensiya tayinlash; soliqlar, davlat bojlari, jarimalar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarni undirish.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.05.2019 yildagi PF-5723-son
“Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”	Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasi. Unga muvofiq, mehnatga haq to‘lashning 22 ta razryadi keltirilgan.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.09.2019 yildagi 775-son
«Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iborat.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611 son qarori
19-son «Xodimlarning daromadlari» Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti	Mazkur standartning maqsadi xodimlarning daromadlarini hisobga olish va ular bo‘yicha ma‘lumotlarni yoritib berish tartibini belgilashdan iborat.	O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug‘i, 09.12.2022 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3400
26-son «Pensiya dasturlari bo‘yicha buxgalteriya hisobi va hisoboti» Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti	Mazkur standart moliyaviy hisobot tayyorlanadigan pensiya dasturlari bo‘yicha moliyaviy hisobotga nisbatan qo‘llaniladi.	O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug‘i, 09.12.2022 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3400

¹⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu asoslar subyekt yoki subyekt faoliyatini tahlil qilishda mehnat unumdorligi, ish vaqtidan foydalanish, xodimlar tarkibi va ulardan foydalanish samaradorligi kabi ko'rsatkichlar orqali xo'jalik yurituvchi korxonaning rentabelligi va strategik raqobatbardoshligini belgilaydi. Ta'kidlash lozimki, xodimlar mehnat to'g'risidagi qonunlarga binoan nafaqat haq to'lanadigan mehnat va ijtimoiy ta'tillarda, balki ish kuni davomidagi va smenalar orasidagi tanaffuslar, dam olish hamda bayram kunlari dam olish huquqidan foydalanadilar. Bizning fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi subyektlarida mehnat ko'rsatkichlari tahlilining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish zaruriyat tug'diradi (4-jadval).

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligi iqtisodiy subektlarda ishchi kuchining samarali ishlash darajasini o'lchovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi va bu mahsulot hajmi, qiymati va sifatini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi «**Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlarini tahlil qilishning amaliy jihatlarini**» deb nomlangan bo'lib, unda xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlilining tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini va mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda mehnat samaradorligi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar shuningdek, ularni aniqlash yo'llari yoritib berilgan. Jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat unumdorligi, bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot yoki daromad hajmi, ish vaqtidan foydalanish darajasi kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uslublari va ularni amalda qo'llashdagi yechimlar ko'rsatib berilgan. Bunda mavjud tahliliy usullar, ularning ustun va kamchilik tomonlari tahlil etilib, amaldagi hisobot ma'lumotlari asosida mehnat ko'rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari ochib berilgan. Shuningdek, bobda turli sohalaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda amaliy tahlillar o'tkazilib, tahlil natijalarini qaror qabul qilishda qanday foydalanish mumkinligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xo'jalik yurituvchi subektlarda mehnat samaradorligi subyekt yoki subyektning iqtisodiy faoliyatini baholashda, samaradorlikni oshirishda va resurslardan samarali foydalanishda muhim o'rin tutadi. Mehnat samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlashda quyidagi omillar hisobga olinadi¹⁹:

ishlab chiqarish hajmi va samaradorligi omili bir ishchi yoki ishchi kuchining umumiy ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish hajmi ko'payishi natijasida mehnat samaradorligi ham oshadi. Mahsulot sifati va innovatsiya omili nafaqat ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, balki uning sifati bilan ham o'lchanadi. Innovatsion texnologiyalar va ishlab chiqarish jarayonidagi yangiliklar mehnat samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi;

ishchi kuchining malakasi, tajribasi va ta'lim darajasi samaradorlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Malakali va tajribali ishchilar ishning murakkab qismlarini tez va sifatli bajaradi;

resurslardan foydalanish samaradorligi (xom-ashyo, energiya, vaqt va boshqalar) mehnat samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Resurslarning isrof qilinishi samaradorlikni pasaytiradi;

¹⁹ U.S. Bureau of Labor Statistics. (2024). *Manufacturing Sector: Labor Productivity*. FRED, Federal Reserve Bank of St. Louis. <https://fred.stlouisfed.org/series/MPU9900063>

subyektdagi ish sharoitlari (mehnatni muhofaza qilish, qulayliklar, xavfsizlik) va mehnatni tashkil etish usullari samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qulay va xavfsiz ish sharoitlari ishchilarning samaradorligini oshiradi;

subyektda samarali boshqaruv tizimi, rahbarlik ko'nikmalari va ishchilarning motivatsiya tizimi samaradorlikka ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiyalangan ishchilar o'z ishiga ko'proq e'tibor qaratib, yuqori natijalarga erishishga harakat qiladilar.


Bundan ko'rishimiz mumkinki, mehnat samaradorligini baholash muhim hisoblanadi, "samaradorlik muvozanati bahosi"ning aniq o'lchami (me'yori) va tavsiya etiladigan chegaralari mavjud, ammo ular qat'iy universal norma emas, balki metodik chegaralar bo'lib, tahlil maqsadi va tarmoq xususiyatiga moslab belgilanadi; amaliyotda bu baho odatda nisbiy ko'rsatkich orqali o'lchanadi, eng ko'p qo'llaniladigani ish haqi ulushi koeffitsienti bo'lib, u $K_{sm} = (1 \text{ xodimga ish haqi} \div 1 \text{ xodimga mehnat unumdorligi}) \times 100 \%$ formulasi bilan aniqlanadi va shartli chegaralar quyidagicha talqin qilinadi: $K_{sm} \leq 25-30 \%$ – samaradorlik muvozanati saqlangan, chunki mehnatga haq to'lash yaratilgan qiymat bilan asoslangan; $30-40 \%$ – chegaraviy (xavf zonasi), bunda ish haqi bosimi kuchaymoqda va unumdorlik o'sishi yetarli emas; 40% dan yuqori – muvozanat buzilgan, bu holatda ish haqi o'sishi iqtisodiy natijalarni qoplay olmaydi va moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi; shu bilan birga, dinamik mezon ham qo'llanadi, ya'ni ish haqi o'sish sur'ati \leq mehnat unumdorligi o'sish sur'ati bo'lsa muvozanat saqlangan, aks holda buzilgan deb baholanadi, va aynan shu ikki yondashuvning birgalikda qo'llanishi "samaradorlik muvozanati jadvali"ni ilmiy jihatdan asosli va o'lchanadigan metodga aylantiradi.

5-jadval

“KVARTS” va “O'zmaxsusmontajqurilish” AJlarda ish haqi, mehnat unumdorligi va mahsulot qiymati o'rtasidagi bog'liqlikni baholashning “samaradorlik muvozanati jadvali”

Yil	Korxona	Mehnat unumdorligi (mln so'm/xodim)	Unumdorlik o'sishi (%)	Ish haqi (ming so'm/xodim)	Ish haqi / unumdorlik ulushi (%)	Samaradorlik muvozanati bahosi
2019	“KVARTS” AJ	160,21	0	4 442,55	2,77	Bazaviy yil
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	210,7	0	3 890,66	1,85	Bazaviy yil
2020	“KVARTS” AJ	160,18	−0,02	4 936,17	3,08	Nomuvozanat (ish haqi > unumdorlik o'sishi)
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	208,57	−1,01	4 322,95	2,07	Nomuvozanat (ish haqi > unumdorlik o'sishi)
2021	“KVARTS” AJ	261,19	63,06	5 484,63	2,1	Muvozanat (ish haqi ≤ unumdorlik o'sishi)
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	197,39	−5,36	4 803,28	2,43	Nomuvozanat (ish haqi > unumdorlik o'sishi)
2022	“KVARTS” AJ	263,84	1,01	6 094,04	2,31	Nomuvozanat (ish haqi > unumdorlik o'sishi)
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	193,87	−1,78	5 323,65	2,75	Nomuvozanat (ish haqi > unumdorlik o'sishi)
2023	“KVARTS” AJ	204,91	−22,34	6 771,15	3,3	Nomuvozanat (ish haqi > unumdorlik o'sishi)
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	203,2	4,81	5 906,28	2,91	Nomuvozanat (ish haqi > unumdorlik o'sishi)
2024	“KVARTS” AJ	204,91	0	7 523,50	3,67	Nomuvozanat (ish haqi > unumdorlik o'sishi)
	“O'zmaxsusmontajqurilish” AJ	203,2	0	6 562,53	3,23	Nomuvozanat (ish haqi > unumdorlik o'sishi)

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2019-yil bazaviy yil sifatida qabul qilingan bo'lib, KVARTS AJda mehnat unumdorligi 160,21 mln so'm/xodim, ish haqi ulushi 2,77 % ni, O'zmaxsusmontajqurilish AJda esa mehnat unumdorligi 210,70 mln so'm/xodim, ish haqi ulushi 1,85 % ni tashkil etgan, 2021-yilda KVARTS AJda mehnat unumdorligi +63,06 % ga oshib, ish haqi o'sish sur'atidan yuqori bo'lgani sababli samaradorlik muvozanati saqlangan, aksincha 2023–2024-yillarda har ikkala korxonada mehnat unumdorligi o'sishi 0 % yoki manfiy bo'lib, ish haqi ulushi 3,23–3,67 % gacha oshgani natijasida samaradorlik muvozanati buzilgan.



1-rasm. Mehnat samaradorligi asoslarini baholash bo'yicha yondashuvlari²⁰

Ko'p o'lchovli mehnat ko'rsatkilari mehnat faoliyatining turli parametrlarini o'lchash va baholash uchun ishlatiladi. Ko'p o'lchovli ko'rsatkichlar bir vaqtning o'zida bir necha o'lchovlarni hisobga olgan holda belgilangan ko'rsatkichlardan iborat bo'ladi. Ularning asosiy maqsadi murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va qabul qilish jarayonlarida to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi. Ko'p o'lchovli ko'rsatkichlar

²⁰ <https://www.nber.org> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

turli sohalarda, qo'llaniladi. Bular jumlasiga biznes va iqtisodiyot sohasini, shu jumladan mehnatning natijaviyligini nazariy va amaliy jihatdan tadqiqotlar olib borishda ham foydalaniladi.

Bunday ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

vaqt nuqtai nazaridan o'lchov birliklari (kunlik, oylik, yillik, uch yillik, besh yillik va h.k.);

mehnatning davriyligi vaqt nuqtai nazaridan (o'tgan davr, hozirgi davr, kelgusi davr va h.k.)

ma'lum vaqt davomida mehnatning samaradorligi nuqtai nazaridan (mehnat unumdorligi, mehnat samaradorligi va boshqa natijaviylik ko'rsatkichlar);

yaratilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning turli o'lchovi bo'yicha aniqlanishi (summada, kilogramm, tonna va h.k. hajmda, sonda);


mehnatga jalb qilingan xodimlar soni (malakasi, yoshi, jinsi va h.k.)

Ushbu ma'lumotlar asosida ko'rsatkichlar tahlil qilinadi va to'g'ri xulosa chiqarilishiga asos bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bir vaqtning o'zida ma'lumotlar mehnat muddati, ishlab chiqarish hajmi, ishchilar soni va boshqa parametrlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlarning tahlil qilinishi, tahlilga asosan xulosalar chiqarilishi yoki takliflar berilishi turli sohalarda, jumladan, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim, marketing va boshqa sohalarda ham qo'llaniladi.

Mehnatga oid ko'rsatkichlarni ma'lumotlar asosida tahlil qilish uchun birinchi navbatda ma'lumotlar yig'iladi. Bular to'g'ri va ishonchli manbalardan olingan ma'lumotlar asosida shakllanadi. Ushbu ma'lumotlar asosida barcha ko'rsatkichlar bir-biriga bog'liq holda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida yig'ilgan ma'lumotlarni statistik metodlar, grafiklar va modellash tirish orqali tahlil qilinadi. Tahlil natijasida olingan ma'lumotlarga asoslangan holda tegishli xulosalar chiqariladi.

Ushbu jarayonda tahlilning ahamiyati shundan iboratki, shu chiqarilgan xulosalar asosida aniq takliflar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Ko'rinib turibdiki, har bir iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning takomillashuvida tahlil muhim ahamiyatga ega. Bugungi raqamli va o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitda korxonalar nafaqat tashqi omillarga moslashishi, balki ichki boshqaruv tizimini ham yangilashi zarur bo'lib qoldi. Ko'plab tashkilotlar xodimlarning faqat ish unumdorligini emas, balki ularning tashabbuskorlik qobiliyatini ham baholay boshladi.


Tahlil natijalari aniq raqamlar asosida tushunarli tarzda (grafiklar, diagrammalar va boshqa vizual vositalar orqali) ifoda etiladi. Ushbu ma'lumotlar asosidagi mehnat ko'rsatkichlar mehnat bozoridagi xodimlarda, ish bilan ta'minlanganlik darajasida, ish haqi, mehnat sharoitlari va boshqa mehnat bilan bog'liq ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Ushbu ko'rsatkichlar nafaqat iqtisodiyot uchun, balki ijtimoiy va siyosiy vaziyatni tahlil qilish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda mehnat ko'rsatkichlari asosida siyosiy qarorlar qabul qilinadi. Mehnat ko'rsatkichlari 5 ta asosiy guruhga bo'linadi: ishchi kuchi tarkibi, ish haqi, ish vaqti, mehnat unumdorligi hamda mehnat sharoitlari va sifati. Ular orqali mehnat muhitining xavfsizligi va barqarorligi ham aniqlanadi. Kadrlar harakati, qo'nimsizlik darajasi va kasb kasalliklari holati ham bu ko'rsatkichlar orqali kuzatiladi (2-rasm).



2-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlarini baholash tartibi²¹

²¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkichlar bir vaqtning o‘zida bir necha o‘lchovlarni hisobga oladigan ko‘rsatkichlardir. Ularning asosiy maqsadi murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va qabul qilish jarayonlarida yordam berish hisoblanadi. Ko‘p o‘lchovli ko‘rsatkichlar turli sohalarda, ya‘ni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, ijtimoiy hayotda, muhandislik ishlarida ham qo‘llaniladi. Shuningdek, turli jarayonlarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiqot qilish jarayonlarida ham foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi quyidagi rasmda o‘z ifodasini topgan (3-rasm).



3-rasm. Ko‘p o‘lchovli mehnat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqliklari²²

Tanlab olingan obyektimiz hisoblangan “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJning mehnat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy jihatlari 5-jadvalda keltirilgan²³. “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJ faoliyatida ko‘p o‘lchovli mehnat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular

²² Muallif tomonidan tuzilgan

²³ <https://www.uzmontaj.uz/organizations/Sanoat/>

asosida korxonada mehnat resurslaridan foydalanish darajasi tahlil qilinadi. Jumladan, bir soat, bir kun yoki bir oy davomida bajarilgan ish hajmi, ya'ni vaqt birliklariga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqarish jarayonlarining intensivligi va ishchilarning malakasiga bog'liqdir. Xodimlar soniga nisbatan hisoblanadigan ko'rsatkichlar esa bir ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi, boshqaruvchilar va ishlab chiqaruvchilar soni orasidagi nisbat orqali aniqlanadi. Korxonada samaradorlikni oshirish uchun aynan shu indikatorlar asosida mehnat taqsimotini to'g'ri tashkil etish, yuqori malakali ishchilar ulushini ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi. Shu tarzda, "O'zmaxsusmontajqurilish" AJda mehnat samaradorligi ko'rsatkichlarini doimiy tahlil qilish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

6-jadval

"O'zmaxsusmontajqurilish" AJda mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash²⁴

1. Mehnat samaradorligi va unumdorligi (45 ball)		
1.1	Ishchining ishlab chiqargan mahsuloti (soatda, kunda, oylik)	10
1.2	Mehnat unumdorligining o'sish sur'ati (avvalgi yilga nisbatan)	10
1.3	Ish vaqtidan samarali foydalanish darajasi	10
1.4	Mehnatga haq to'lash fondining samaradorligi	5
1.5	Ishlab chiqarishning uzluksizligi va intizom darajasi	5
1.6	Korxona ichki treninglar va malaka oshirishda ishtirok	5
2. Innovatsion va texnologik faoliyat (30 ball)		
2.1	Yangi texnologiyalarni joriy etishdagi ishtirok	10
2.2	Taklif va ratsionalizatorlik ishlari soni va natijasi	10
2.3	Ishlab chiqarishga kiritilgan innovatsion takliflar	5
2.4	Ichki auditlar va sifat tahlillarida faol ishtirok	5
3. Tashkiliy va ijtimoiy faollik (15 ball)		
3.1	Ishchi intizomi (kechikishlar, mehnat tartibiga rioya)	5
3.2	Korxona ijtimoiy tadbirlarida ishtirok (subbotnik, jamiyatlar)	5
3.3	Ichki korporativ madaniyat va ijobiy fikrlar	5
4. Xavfsizlik va mehnat muhofazasi (10 ball)		
4.1	Mehnat muhofazasi bo'yicha o'tkazilgan treninglarda ishtirok	5
4.2	Baxtsiz hodisalar, texnika xavfsizligi buzilishi holatlari	5

6-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, ishchi faoliyatini baholashning asosiy mezonlari va ularning maksimal ballari ko'rsatilgan. Bunda, avvalo mehnat samaradorligi va ishchi unumdorligi (45 ball) ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy ko'rsatkich sifatida belgilangan bo'lib, ishchi tomonidan tayyorlangan mahsulot hajmi, mehnat unumdorligining o'sish sur'ati, ish vaqtini unumli tashkil etish va mehnatga haq to'lash fondidan foydalanish samaradorligi kabi mezonlar orqali baholanadi. Shuningdek, ishlab chiqarishning uzluksizligi va intizomga rioya etish darajasi hamda ichki treninglarda ishtirok etish holati ham hisobga olinadi. Ikkinchi yo'nalish innovatsion va texnologik faoliyat (30 ball) bo'lib, ishchi tomonidan yangi texnologiyalarni joriy etishdagi ishtiroki, taklif va ratsionalizatorlik ishlari, ishlab chiqarishga kiritilgan innovatsion g'oyalar hamda ichki audit va sifat tahlillarida ishtirok darajasi aniqlanadi. Tashkiliy va ijtimoiy faollik (15 ball) qismida esa ishchi intizomi, mehnat tartibiga rioya qilish, korxonadagi ijtimoiy tadbirlarda ishtirok va korporativ madaniyatga qo'shgan

²⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

hissasi baholanadi. Shuningdek, xavfsizlik va mehnat muhofazasi (10 ball) yo‘nalishida ishchi mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘tkazilgan treninglarda ishtirok etishi va texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish holatlari hisobga olinadi.

Ushbu kompleks baholash tizimi ishchi faoliyatining barcha jihatlarini qamrab olgan bo‘lib, mehnat samaradorligini oshirish, innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish va jamoada ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi.

7-jadval

“O‘zmaxsusmontajqurilish” AJning moliyaviy natijalari bo‘yicha 2019-2024 yillardagi tahlili (mln. so‘m)²⁵

Ko‘rsatkichlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2024 yil 2020 yilga nisbatan o‘zgarishi
1	3	4	5	6	7	8
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	1 411 894,22	1 485 184,50	1 604 286,90	1 764 715,59	1 941 187,15	529 292,93
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	838 243,33	712 851,69	757 219,06	832 940,97	916 235,06	77 991,73
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	573 650,89	772 332,82	847 067,84	931 774,62	1 024 952,09	451 301,20
Davr xarajatlari, jami, shu jumladan:	827 833,39	934 362,12	835 479,24	919 027,16	1 010 929,88	183 096,49
Ma‘muriy xarajatlar	451 361,80	383 843,22	407 733,34	448 506,67	493 357,34	41 995,54
Boshqa operatsion xarajatlar	376 471,59	550 518,90	427 745,90	470 520,49	517 572,54	141 100,95
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	-254 182,50	-162 029,30	11 588,60	12 747,46	14 022,21	268 204,71
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami, shu jumladan:	354 962,41	710 263,70	114 928,10	126 420,91	139 063,00	-215 899,41
Dividendlar shaklidagi daromadlar	314 514,42	173 676,90	92 882,60	102 170,86	112 387,95	-202 126,47
Foizlar shaklidagi daromadlar	4 824,16	28 244,60	22 045,50	24 250,05	26 675,06	21 850,90
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	35 623,83	508 342,20	-	-	-	-35 623,83
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, shu jumladan:	501,38	396 998,00	-	-	-	-501,38
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	501,38	396 998,00	-	-	-	-501,38
Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari)	100 278,53	151 236,40	126 516,70	139 168,37	153 085,21	52 806,68
Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar)	100 278,53	151 236,40	126 516,70	139 168,37	153 085,21	52 806,68
Foyda solig‘i	-	-	11 171,70	12 288,87	13 517,76	13 517,76
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	100 278,53	151 236,40	115 345,00	126 879,50	139 567,45	39 288,92
Jami xodimlar	6 768,00	7 521,00	8 273,00	8 686,00	9 555,00	2 787,00
Qo‘nimsizlik darajasi (%)	7,90%	7,50%	6,80%	6,40%	6,00%	-1,90
O‘rtacha ish muddati (yillar)	5	5,5	6,05	6,66	7,32	2,32
Mehnat unumdorligi (bir xodimga to‘g‘ri keladigan daromad, so‘m)	208,61	197,47	193,92	203,17	203,16	-5,45

²⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

7-jadvaldagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, 2020–2024 yillar davomida “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJning iqtisodiy ko‘rsatkichlari barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etgan bo‘lib, bu holat mehnat ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi, mahsulotlar sotishdan tushgan sof tushum 1 411 mlrd so‘mdan 1 941 mlrd so‘mgacha, umumxo‘jalik faoliyatning foydasi 100 mlrd so‘mdan 153 mlrd so‘mgacha, mehnat unumdorligi esa bir xodimga 328,3 mln so‘mdan 366,2 mln so‘mgacha oshgan, bu esa ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy natijalar va inson kapitali samaradorligi o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlikni tasdiqlaydi, shunga qaramasdan, 2020 yildagi zarar ko‘rsatkichlari va tannarxning keskin oshishi kabi inqirozlarga qaramay, keyingi yillarda barqarorlik tiklangan, sof foyda, ish haqi xarajatlari va moliyaviy daromadlar ortishi natijasida subyektning ichki zaxiralari va resurslaridan samarali foydalangan holda o‘shishga erishilgan.

Xodimlarning aylanmasi darajasi yoki qo‘nimsizlik ko‘rsatkichi uch yil davomida o‘zgarib turgan, eng yuqori ko‘rsatkich 2020-yilda 12% ni tashkil yetdi, lekin 2024-yilda 5,83% gacha pasaydi. Qo‘nimsizlik ko‘rsatkichining past bo‘lishi ijobiy baholanadi, chunki bu xolatda ishga yollash va o‘qitish xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Xodimlarning o‘rtacha ish staji nisbatan barqaror bo‘lib, 2020-yildagi 5,0 yildan 2024-yilda 7,32 yilga bir oz ko‘tarildi. Bu xodimlarning kompaniyada uzoqroq qolishidan dalolat beradi. Bir xodimga to‘g‘ri keladigan daromad sifatida o‘lchanadigan mehnat unumdorligi izchil tushib bormoqda, ya‘ni 2020-yildagi 208.61 ming so‘mdan 2024-yilda 203.16 ming so‘mga yetdi. Bu subyekt har bir xodimdan ko‘proq daromad olayotganidan dalolatdir, bu esa samaradorlik yaxshilanganidan dalolat beradi.

Dissertasiyaning uchinchi bobi «**Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini takomillashtirish**» deb nomlangan bo‘lib, unda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini takomillashtirish va “KVARTS” AJ va “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJlarda mehnat haqi tahlilini takomillashtirish hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko‘rsatkichlari tahlilini ekonometrik modellash tirish yoritib berilgan. Jumladan, subyektlarda mehnat unumdorligi, bir ishchiga to‘g‘ri keladigan mahsulot yoki daromad hajmi, ish vaqtidan foydalanish darajasi, xodimlar aylanma darajasi va mehnatga oid boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishning uslubiy yondashuvlari asoslab berilgan. Bunda tahlil jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar, raqamli tahlil vositalari, iqtisodiy-statistik modellar hamda tavsiya etilgan tahlil usullarining amaliyotda qo‘llanilishi keng yoritilgan. Shuningdek, ushbu bobda 2026–2030 yillar davomida mehnat ko‘rsatkichlarining rivojlanish dinamikasiga oid prognoz ko‘rsatkichlar hisoblab chiqilgan va ularning iqtisodiy negizda asoslangan tendensiyasi tahlil etilgan. Prognozlar asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda ishchi kuchi potensialidan oqilona foydalanish uchun strategik yo‘nalishlar ishlab chiqilgan.

**“KVARTS” AJ va “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJ korxonalarida
bitta xodim samaradorligini solishtirma tahlili²⁶**

Ko‘rsatkich nomi	Formula	“KVARTS” AJ	“O‘zmaxsusmontajqurilish” AJ
O‘rtacha oylik ish haqi (MX)		7 523 500	6 562 533
Yillik ish haqi	$MX \times 12$	90 282 000	78 750 396
Yillik mehnat fondi (MF)	$MX \times 12 \times 1.25$ (<i>solliq + ijtimoiy to‘lovlar bilan</i>)	112 852 500	98 438 000
Bir xodimga to‘g‘ri keladigan mahsulot qiymati (IMQ)	$\Sigma(\text{Yillik ishlab chiqarish} / \text{Xodimlar soni})$	198 500 000	154 800 000
Qo‘shilgan qiymat (QQ)	IMQ – Material xarajatlari	132 000 000 (<i>o‘rtacha sanoat ulushi 33% material</i>)	102 000 000
Mehnat rentabelligi (MR)	$(QQ - MF) / MF \times 100\%$	17%	3.6%
Bir xodimning sof foydasi (XF)	QQ – MF	19 147 500	3 562 000
Mehnat unumdorligi (MU)	IMQ / Yillik ish soati (1 840 soat)	107 880 so‘m/soat	84 130 so‘m/soat
Samaradorlik indeksi (SI)	$(MU_n \times 0.4 + MR_n \times 0.3 + XF_n \times 0.3)$	0.82	0.54

Jadvaldagi hisob-kitoblar asosida “KVARTS” AJ va “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJ faoliyati mehnat samaradorligi va iqtisodiy natijadorlik nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilinganda, birinchi korxonada mehnat resurslaridan foydalanish ancha yuqori darajada tashkil etilgani ilmiy jihatdan asoslanadi, xususan “KVARTS” AJda o‘rtacha oylik ish haqi (7 523 500 so‘m) va yillik mehnat fondi (112 852 500 so‘m) yuqoriroq bo‘lishiga qaramay, bir xodimga to‘g‘ri keladigan mahsulot qiymati (198 500 000 so‘m) hamda qo‘shilgan qiymat (132 000 000 so‘m) sezilarli darajada katta bo‘lib, bu mehnat xarajatlarining yuqori qaytim bilan qoplanayotganini ko‘rsatadi, natijada mehnat rentabelligi 17 % ni tashkil etib, “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJdagi 3.6 % ko‘rsatkichdan bir necha baravar yuqori shakllangan, ayniqsa mehnat unumdorligi bo‘yicha farq yaqqol namoyon bo‘lib, “KVARTS” AJda bir ish soatiga 107 880 so‘mlik mahsulot yaratilayotgani, ikkinchi korxonada esa bu ko‘rsatkich 84 130 so‘m bilan cheklanayotgani ishlab chiqarish texnologiyasi, tashkil etish darajasi va boshqaruv samaradorligidagi tafovutlarni anglatadi, yakuniy integral baho sifatida hisoblangan samaradorlik indeksi (SI) ham ushbu xulosani mustahkamlaydi, ya’ni “KVARTS” AJda 0.82 daraja kuzatilib, bu mehnat unumdorligi, rentabellik va sof

²⁶ Muallif tomonidan tuzilgan

foydaning muvozanatli uyg'unlashganini bildirsa, "O'zmaxsusmontajqurilish" AJda 0.54 daraja mehnat xarajatlari bilan yaratilayotgan iqtisodiy natija o'rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi, demak ilmiy xulosa sifatida aytish mumkinki, ish haqi o'sish sur'ati mehnat unumdorligi va qo'shilgan qiymat o'sishi bilan uyg'unlashgan sharoitdagina yuqori samaradorlikka erishiladi va "KVARTS" AJ amaliyoti buni empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tanlab olingan subyektlarimiz boshqaruv xodimlari uchun samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari aniqlandi (8-jadval).

9-jadval

«KVARTS» va «O'zmaxsusmontajqurilish» AJning 2019-2024 yillar bo'yicha asosiy va qo'shimcha samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari tahlili²⁷

	Ko'rsatkichlar	Asosiy samaradorlik-ning muhim ko'rsatkichlari	Qo'shimcha samaradorlik-ning muhim ko'rsatkichlari	Samaradorlik-ning yig'indi ko'rsatkichi (SYK)	Samaradorlik-ning yig'indi ko'rsatkichi (SYK)
2019	«KVARTS» AJ	39,70	0,00	39,70	qoniqarsiz
	«O'zmaxsusmontaj-qurilish» AJ	151,9	0,00	151,2	yuqori darajada
2020	«KVARTS» AJ	80,30	134,6	107,4	yuqori darajada
	«O'zmaxsusmontaj-qurilish» AJ	130,90	0,00	190,90	yuqori darajada
2021	«KVARTS» AJ	107,70	123,40	115,50	yuqori darajada
	«O'zmaxsusmontaj-qurilish» AJ	105,10	91,10	98,10	yeterli darajada
2022	«KVARTS» AJ	138,40	244,70	191,50	yuqori darajada
	«O'zmaxsusmontaj-qurilish» AJ	137,10	0,00	137,10	yuqori darajada
2023	«KVARTS» AJ	91,50	125,70	108,60	yuqori darajada
	«O'zmaxsusmontaj-qurilish» AJ	51,10	0,00	51,10	past darajada
2024	«KVARTS» AJ	100,60	124,50	112,50	yuqori darajada
	«O'zmaxsusmontaj-qurilish» AJ	38,9	0,00	38,9	qoniqarsiz

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28 iyuldagi 207-son «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi Nizomga asosan²⁸, Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari quyidagi mezonlar asosida baholash tartibi keltirilgan:

²⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

²⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-2712352>

SYK miqdori: 0 – 40% qoniqarsiz; 60 – 80% yetarli darajada emas; 80 – 90% o‘rtacha darajada; 90 – 100% yetarli darajada; 100 – 0% yuqori darajada. 2019–2024-yillar davomida “KVARTS” AJ va “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJ faoliyatining asosiy va qo‘shimcha samaradorlik ko‘rsatkichlari orqali baholanganda, har ikkala subyektning samaradorlik dinamikasini keskin farq qiluvchi oraliqda kuzatish mumkin; xususan, “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJ 2019-yilda 151,9 ball bilan juda yuqori samaradorlikka erishgan bo‘lsa, 2023 va 2024-yillarda ushbu ko‘rsatkich 51,1 va 38,9 ballga tushib ketib, boshqaruv organi faoliyati samaradorligi past darajaga va oxirda qoniqarsiz holatga tushgan. “KVARTS” AJda 2019-yilda asosiy va qo‘shimcha samaradorlik ko‘rsatkichlari juda past bo‘lganiga qaramay, 2020–2023 yillar mobaynida samaradorlik keskin oshgan, 2022-yilda esa 191,5 ballgacha yetib, yuqori darajada baholangan. Jadval ma’lumotlari ikki subyekt o‘rtasidagi strategik boshqaruv, ichki imkoniyatlardan foydalanish va ijro hokimiyatining samaradorlikdagi farqini yaqqol ko‘rsatadi; xususan, “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJda 2024-yilda qo‘shimcha samaradorlik umuman qayd etilmagani ushbu subyektda innovatsion va boshqaruv elementlarining susayganini anglatadi. Iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida mehnat unumdorligini baholash va tahlil qilish uchun xorijiy davlatlar ko‘p o‘lchovli tizimdan samarali foydalanmoqda. Bu tajribalar mehnat samaradorligini oshirishda innovatsiyalarni qo‘llash, boshqaruv strategiyalarini takomillashtirish hamda texnologik avtomatlashtirish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

“KVARTS” AJ va “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJning 2026-2030-yillar uchun mehnat samaradorligi, ish soatlari, oylik ish haqi va innovatsiya darajasini prognoz qilish jarayonida iqtisodiy-matematik modellardan foydalanildi. Bu prognozlar asosida subyektlar o‘z faoliyatini strategik rejalashtirishi va ish samaradorligini oshirish uchun zarur choralarni ko‘rish mumkin. Ushbu tahlil har bir ko‘rsatkichning 2026-yildan boshlab o‘sishi yoki qisqarish tendensiyalarini aks ettiradi.

10-jadval

«O‘zmaxsusmontajqurilish» AJ mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlarining 2026-2030-yillarda prognoz qiymati²⁹

Yil	Samaradorlik	Ish vaqti	Ish haqi (ming)	Innovatsion indeks
2026	104,00	1782,00	5250,00	72,10
2027	108,16	1764,18	5512,50	74,26
2028	112,49	1746,54	5788,13	76,49
2029	116,99	1729,07	6077,53	78,79
2030	121,67	1711,78	6381,41	81,15

Prognozga ko‘ra, mehnat samaradorligi yillik 4% o‘shish sur‘ati bilan 2030-yilga kelib 121,67 ga yetadi. Bu natijalar ish samaradorligini oshirish uchun avtomatlashtirish va yangi texnologiyalar joriy qilishning samaradorligini tasdiqlaydi.

²⁹ Muallif tomonidan tuzilgan

Avtomatlashtirish tufayli ish soatlari yillik 1% ga kamayadi. Bu natija subyektlardagi jarayonlarning samaradorligi yuqori darajada ta'minlanishini ko'rsatadi. Bu ham iqtisodiy o'sishda ish soatlarini qisqartirish bilan birga mehnat samaradorligini saqlab qolish mumkinligini anglatadi.

Ish haqi har yili 5% ga o'sishi natijasida 2030-yilda 6381,42 ni tashkil etadi. Ishchilarni rag'batlantirish va ularning ishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun maoshlarning muntazam o'sib borishi muhimdir.

Innovatsiya indeksi 2030-yilga kelib 81,15 ga yetishi kutilayapti, bu esa subyektlarda raqobatbardoshlikni oshirish va mahsulot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Prognoz natijalari mehnat samaradorligini oshirishda innovatsiyalarni joriy qilish, jarayonlarni avtomatlashtirish va ishchilarni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shundan keyin quyidagi tavsiyalar berish maqsadga muvofiq:

1. Innovatsiya va texnologiyalarga sarmoya kiritishni kuchaytirish.
2. Vaqtdan samarali foydalanish uchun jarayonlarni optimallashtirish.
3. Ishchilar uchun rag'batlantiruvchi tizim yaratish va ish haqini muntazam oshirish.

XULOSA

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Mehnat ko'rsatkichi tushunchasiga takomillashgan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Mehnat ko'rsatkichlari bu mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida inson kapitalining iqtisodiy qiymatini aniqlovchi konseptual va metodologik yondashuvlar tizimidir. Ushbu yondashuvlar mehnat jarayonlarining innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi, raqamli tahlil usullari, big data (big data) va sun'iy intellekt vositalari orqali optimallashtirilishi, shuningdek, strategik boshqaruv va iqtisodiy samaradorlik bilan integratsiyasini o'z ichiga oladi.

2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning ko'p o'lchovli tizimi va kompleks to'plami joriy etilishi natijasida subyekt xodimlari tomonidan yaratilgan maxsulot, xizmatlar xajmi, qiymati va sifatini aniqlash jarayoniga erishilgan.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish orqali mehnat samaradorligini oshirishning ichki va tashki imkoniyatlarini aniqlash va ulardan to'g'ri foydalanish yo'llarini hisobga olish imkonini bergan.

4. Mehnat ko'rsatkichlari orqali samaradorlikning muxim ko'rsatkichlar tizimini aniqlash natijasida raxbar xodimlarning faoliyatiga «qonikarsiz», «yetarli darajada», «o'rtacha darajada» va «yuqori darajada» baholash tartibi ishlab chiqilgan.

5. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarini baxolash bo'yicha mehnat samaradorligini ko'rsatkichlarini baxolash bo'yicha dasturiy maxsulot ishlab chiqilgan. Buning natijasida xo'jalik

yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlari samaradorliga, mehnat unumdorligi, saloxiyatini tezkor aniqlash imkonini berdi.

6. Iqtisodiy matematik usullardan foydalanilgan holda xo'jalik yurituvchi sub'etlarda mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning 2026-2030 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Bu orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning ishonchliligini va to'liqliligini oshirishga imkon bergan.

Yuqoridagi ishlab chiqilgan ilmiy nazariy takliflarining amaliyotda joriy etilishi xo'jalik yurituvchi subyektlarda mehnat ko'rsatkichlari tahlilini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

СУВАНОВ БЕКНИЯЗ БАХТИЁР УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ТРУДА В
ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТАХ**

08.00.08 – Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за № В2023.2.PhD/Iqt3045

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (русский, узбекский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Тураев Абдурахим Нуртожиевич
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Ибрагимов Абдугапур Каримович
доктор экономических наук, профессор

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Национальный исследовательский университет
«Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Защита диссертации состоится «25» 12 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.03/10.12.2019.L16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, д.49, Тел.: (71) 239-28-72; факс: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано за номером _____). Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, д.49, Тел.: (71) 239-28-72; факс: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «10» 12 2025 года
(протокол реестра 115 от «10» 12 2025 года).



С.У. Мехмонов

Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней, д.э.н.,
профессор

У. В. Гафуров

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

С. К. Худойкулов

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению ученых
степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях ускоренного развития мировой экономики и обеспечения её конкурентоспособности особое значение приобретают показатели производительности труда, эффективность использования рабочей силы и оценка результативности трудовых ресурсов. Вопросы рационального и эффективного использования трудового потенциала стали одним из ключевых приоритетных направлений экономической политики на 2021–2025 годы. В частности, «в США в 2021 году объём произведённой продукции, приходящийся на один отработанный рабочим час, составлял 70,6 доллара США, тогда как к концу 2025 года прогнозируется увеличение данного показателя до 78,9 доллара, что означает рост на 11,8%»³⁰. «В Германии же в период 2021–2024 годов производительность труда увеличилась в среднем на 9,3%, что явилось результатом внедрения систем автоматизации и цифровых технологий аналитики труда»³¹. «В Республике Корея темпы роста производительности труда в 2021 году составили 6,4%, тогда как к 2025 году ожидается повышение данного показателя до 14,7%»³². В указанных странах налажены развитые механизмы анализа эффективности рабочей силы, планирования трудовых ресурсов и принятия управленческих решений на основе трудовых показателей. В этой связи формирование и аналитическая оценка показателей труда в соответствии с международными стандартами рассматриваются как важнейший фактор достижения устойчивости национальной экономики.

В мировой практике по мере развития экономики хозяйствующих субъектов расширяется охват исследований, направленных на повышение эффективности использования трудовых ресурсов и совершенствование систем оплаты труда. Для субъектов, функционирующих в сферах промышленного производства, услуг и торговли, все более актуальным становится формирование и анализ трудовых показателей на основе международно признанных методик, передовых технологий и стандартов; корректное отражение трудовых затрат, заработной платы и стимулирующих выплат в финансовой отчётности; применение международных стандартов, регулирующих оценку эффективности и продуктивности труда, а также развитие кадрового потенциала. Совершенствование анализа трудовых показателей в хозяйствующих субъектах, внедрение международного опыта и стандартов, проведение научных исследований, основанных на передовых методологических подходах, рассматриваются как приоритетные направления научного поиска в данной области.

В последние годы в Узбекистане реализуется комплекс мер, направленных на обеспечение экономической стабильности, предотвращение случаев банкротства и сохранение рабочих мест. В частности,

³⁰ Квартальный и годовой отчёт Бюро статистики труда США за 2024 год по производительности труда и издержкам на рабочую силу. <https://www.bls.gov>

³¹ Отчёт Федерального статистического ведомства Германии (Destatis) о производительности труда в Германии за 2021–2024 годы. <https://www.destatis.de>

³² Ежегодник национальной статистики производительности труда за 2023 год. Сеул: издательство Корейского центра производительности (KPC). https://eng.kpc.or.kr/eng/national/na_productivity.asp

предпринимаются шаги по субсидированию оплаты труда и поддержке источников доходов населения; выделено свыше 1,8 трлн сумов за счёт государственного бюджета; предоставлены льготы около 60 тысячам субъектов хозяйствования в виде отсрочек по налоговым и социально-страховым платежам; снижена процентная ставка с 16 % до 14 %, что способствовало расширению доступа предпринимательских субъектов к кредитным ресурсам. Одновременно возникает необходимость в реализации дополнительных целевых мероприятий, направленных на поддержание производительности труда работников в хозяйствующих субъектах, совершенствование систем стимулирующих выплат, улучшение организации расчётов по оплате труда, а также реформирование порядка признания, классификации, учёта и оценки расходов на оплату труда и связанных с ними затрат на основе стандартов финансовой отчётности.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, определённых в Указе Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № УП–16 «О Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в год охраны окружающей среды и “зелёной экономики”», Указе Президента от 21 февраля 2024 года № УП–37 «О Государственной программе по реализации Стратегии “Узбекистан – 2030” в год поддержки молодёжи», Указе Президента от 11 сентября 2023 года № УП–158 «О Стратегии “Узбекистан – 2030”», Указе Президента от 28 января 2022 года № УП–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также в Постановлении Президента от 30 августа 2022 года № ПП–366 «О мерах по сокращению доли неформальной занятости и формированию баланса трудовых ресурсов на основе современных подходов», Постановлении Президента от 24 февраля 2020 года № ПП–4611 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчётности», Постановлении Президента от 31 октября 2019 года № ПП–4502 «О мерах по внедрению межведомственного программно-аппаратного комплекса “Единая национальная система труда”», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 августа 2021 года № 545 «О мерах по организации системы управления научной и инновационной деятельностью», Постановлении Кабинета Министров от 28 июня 2015 года № 207 «О внедрении критериев оценки эффективности деятельности акционерных обществ с долей государства и других хозяйствующих субъектов», а также иных нормативно-правовых актах, регулирующих соответствующую сферу.

